



SUNI'Y INTELLEKT: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 203-guruh*

*Talabasi **Djumaboyeva Muhabbat Bahtiyorova Marjona***

*Ilmiy rahbar:*

*Media savodxonlik va axborot texnologiya fani o'qituvchisi:*

***Norinova Dilbaroy***

**Annotatsiya.** Zamonaviy ilmiy hamjamiyatda sun'iy intellekt tobora ko'proq o'rganil-moqdava natijada uni kengroq qo'llash istiqbollari va xavflari haqida munozaralar kuchaymoqda. Muallif sun'iy intellektni insoniyat jamiyati makoniga yaqin kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan integratsiyaning asosiy muammolariga to'xtalar ekan, agar ularni oldini olmasa, yumshatishning mumkin bo'lgan yo'llarini ham belgilab beradi

**Kalit so'zlar.** sun'iy intellekt, kompyuter, robot, tafakkur, ong, shaxs, jamiyat, insoniyat, muammolar, istiqbollar.

**Abstract.** Artificial intelligence is increasingly being studied in the modern scientific community, and as a result, discussions about the prospects and risks of its wider application are intensifying. The author focuses on the main problems of integrating artificial intelligence into the space of human society that may arise in the near future, and also outlines possible ways to mitigate, if not prevent, them.

**Keywords:** artificial intelligence, computer, robot, thinking, consciousness, individual, society, humanity, problems, prospects.

**Аннотация.** В современном научном сообществе искусственный интеллект всё больше изучается, в связи с чем обостряются дискуссии о перспективах и рисках его более широкого применения. Автор рассматривает основные проблемы интеграции искусственного интеллекта в пространство человеческого общества, которые могут возникнуть в ближайшем будущем, а также намечает возможные пути их смягчения, если не предотвращения.



***Ключевые слова:** искусственный интеллект, компьютер, робот, мышление, сознание, человек, общество, человечество, проблемы, перспективы.*

Hozirgi davrda ta'lim tizimining rivojlanishida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi eng dolzarb masalalardan biridir. Dunyo miqyosida raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalarda, xususan, ta'limda ham chuqur o'zgarishlarni olib kirmoqda. Sun'iy intellekt o'quv jarayonini baholashni avtomatlashtirish, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ta'limni tashkil etish va o'qituvchilar faoliyatini yengillashtirishda muhim o'rin tutmoqda. SI yordamida o'qituvchi faoliyatini avtomatlashtirish AI tizimlari o'qituvchining kundalik ishlarini yengillashtiradi. Masalan, testlar yaratish, baholash, o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish kabi jarayonlar avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Natijada o'qituvchi ko'proq pedagogik va ijodiy faoliyatga e'tibor qaratadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kundalik faoliyatini yengillashtirish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va boshqaruvni avtomatlashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Sun'iy intellekt (AI) — bu kompyuter tizimlari tomonidan inson tafakkuriga xos bo'lgan o'rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish kabi funksiyalarni bajarish qobiliyatidir. Ta'limda SI o'qitish jarayonini avtomatlashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, shaxsiy o'quv yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi.

**ChatGPT** - Open AI tomonidan yaratilgan yuqori qobiliyatli, foydalanuvchi so'rovlariga javob berish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga mo'ljallangan sun'iy intellekt dasturi. ChatGPT inson tilini og'zaki va yozma ravishda tushuna oladi. ChatGPT matnlar bilan ishlaydi ya'ni unga kiritiladigan so'rovlarni matn shaklda qabul qiladi va javob qaytaradi. U OpenAI vositasi bo'lgani uchun ChatGPT rasm generatsiya qiluvchi DALL-E hamda video generatsiya qiluvchi Sora kabi boshqa sun'iy intellektlar bilan muammosiz birlashadi.

**Gemini haqida umumiy ma'lumot.** Ilgari Bard nomi bilan tanilgan Gemini Google kompaniyasi tomonidan chiqarilgan sun'iy intellekt hisoblanadi. U Gemini



1.0 da ishlaydi, Google kompaniyasining yirik tilli model texnologiyasidagi so‘nggi ishlanmasi. Ushbu vositalari ajratib turadigan narsa shundaki, barcha foydalanuvchilar Geminidan real vaqtda internet va qidiruv ulanishidan, shuningdek, Xaritalar va YouTube kabi mashhur Google vositalari uchun asosiy kengaytmalardan foydalanishlari mumkin. Pulli rejalar va biznes foydalanuvchilari qo‘shimcha imkoniyatlardan, jumladan, Google Workspace uchun foydalanishlari mumkin. Geminida so‘rovni tahrirlab takomillashtirish va faktlarni tekshirish uchun Google Qidiruv tugmasidan foydalanish xususiyatlari ham mavjud.

SI yordamida 2030 yilga kelib avtomatik boshqariladigan transport vositalari dunyo bo‘ylab keng tarqalishi kutilmoqda, bu esa transport infratuzilmasini o‘zgartiradi va logistika tizimlarini yangilashga olib keladi. Ayniqsa, yuk tashish va yetkazib berish sohasida SI texnologiyalari vaqtni qisqartirish va xarajatlarni kamaytirishga katta yordam beradi. Dunyo bo‘ylab sun‘iy intellekt bozorining hajmi 2021 yilda 327,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2028 yilga kelib 1,5 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu o‘sish yillik 28,7% ni tashkil etadi. Joriy yilga kelib, korxonalarining 37% SI texnologiyalaridan faol foydalanmoqda. Ayniqsa, bank va moliya, sog‘liqni saqlash, transport va chakana savdo sohalarida sun‘iy intellekt keng qo‘llanilayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Sun‘iy intellekt tibbiyot sohasida ham katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. SI yordamida tibbiy tashxis qo‘yish, bemorlarni monitoring qilish va dori-darmonlarni ishlab chiqish jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Ma'lumotlar tahlili va o‘rganish algoritmlari orqali SI tibbiyotda yanada samarali va tezkor tashxis qo‘yish imkonini bera boshladi.

Sun‘iy intellekt bozori jadal rivojlanib bormoqda va bu rivojlanish kelajakda yanada tezlashishi kutilmoqda. 2030 yilga kelib, SI bozorining umumiy hajmi 190 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Sun‘iy intellekt texnologiyalari kelajakda yanada rivojlanib, yangi innovatsiyalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, kvant hisoblash, insoniy ongni sun‘iy intellekt bilan integratsiya qilish kabi yutuqlar amalga oshirilishi mumkin. SIning imkoniyatlari beqiyos, ammo sun‘iy intellektdan foydalanishning quyidagi muammoli tomonlari ham mavjud:



Sun'iy intellekt tizimlari o'rnatilgan ma'lumotlarga asoslangan holda ishlaydi. Agar bu ma'lumotlar noto'g'ri yoki noxolis bo'lsa, SI ham nohaqlikni davom ettirishi mumkin. Sun'iy intellektni o'qitishda foydalaniladigan ma'lumotlar adolatli va diskriminatsiyadan holi bo'lishi kerak. Shu bilan birga, ma'lumotlar yig'ishda obyektivlikka e'tibor qaratish lozim. Sun'iy intellekt qarorlar qabul qilish yohud hukm chiqarishda insoniylikka zid qarorlar qabul qilishi mumkin. Bu esa inson huquqlariga mufoviq emas. SI takomillashuvi va qo'llanilishida etika me'yorlariga rioya qilish, inson huquqlarini himoya qilish va insoniylik qadriyatlarini saqlab qolish muhimdir. Ayni paytda, SI asosida qabul qilinadigan qarorlar ustidan inson nazoratini saqlab qolish lozim.

Sun'iy intellektning talimda zararlari: O'quvchilarning mustaqil fikrlashi kamayadi. Barcha savollarga suniy intellect javob bersa, o'quvchi kamroq izlanadi. Tayyor javoblarga o'rganish xavfi bor. E'tiborning chalg'ishi. O'quvchi ko'proq chat bilan gaplashib asosiy o'qishni unutishi mumkin. Suniy intellect bergan javobni tekshirmasdan qabul qilishi natijasida o'quvchi "Nima uchun?" degan savolni kamroq beradi. Jamoada ishlash, bahslashish, fikt almashish, kabi ko'nikmalar sustlashadi. O'quvchilar suniy intellect Mutlaq to'g'ri deb o'lab, kitob o'qituvchi va ilmiy manbalarni kamroq o'qiydi.

Lekin: Suniy intellektning zararli tomonlari ko'p bo'lishi mumkin, lekin o'quvchi undan to'g'ri meyorda foydalansa, bu xavflarning xavfi kamayadi yoki umuman yo'qoladi. Agar o'quvchi intellektdan faqat tushunmagan joyida foydalansa, zarar bo'lmaydi. Murakkab mavzularni oddiy tilda, misollar bilan tushuntirib beradi. Suniy intellect o'quvchini darajasini, kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlab bera oladi. Yana bir eng katta foydasi til o'rganishda: talaffuzni tushuntiradi xatolarni to'g'rilaydi, suhbat orqali muloqot ko'nikmasini shakllantiradi.

Telefon ham zararli bo'lishi mumkin, lekin to'g'ri foydalansak- ilm, dars, aloqa uchun juda foydali. Suniy intellect ham shunday. O'quvchining o'zi qanday foydalansa, natija ham shunga qarab bo'ladi!

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davrida suniy intellectning barcha yo'nalishlarda rivojlanishi zarur. Chunki SI nafaqat texnologiya



balki, iqtisodiyot, tibbiyot, ta'lim sanoat, transport va kundalik hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Uning to'g'ri va ma'suliyatli qo'llanishi jarayonlarni tezlashtiradi, inson mehnatini yengillashtiradi, aniqlikni oshiradihamda innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi.